O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2022 - yil 30 - sentabr 477-8-116-Q/22 Sariosiyo tuman hokimligi

Sariosiyo tuman hokimining eskirgan va o‘z axamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z axamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentyabrdagi PF-6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuninning 6,24 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A D I :

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF-6075-son Farmonida 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z kuchini yo‘qotgan normativ-xuquqiy xujjatlarni bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2.Sariosiyo tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z axamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati M.Hasanova mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish hokimning birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi **A.P.Xujaqulov**

Sariosiyo tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
477-8-116-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

R O‘ Y X A T I

1. Sariosiyo tuman hokimining “Tuman hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va yong‘inlar oqibatlarini maxsus xizmatlar bilan hamkorlikda bartaraf etish to‘g‘risida”gi 2020-yil 26-maydagi Q-753-son qarori.

2. Sariosiyo tuman hokimining “Tuman maxalliy byudjeti mablag‘ bilan ta’minlanadigan byudjet muassasalarining tasdiqlangan xarajatlar rejasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi 2020-yil 08-iyundagi Q-800-sonli.

3. Sariosiyo tuman hokimining “Tuman xududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2021-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 2021-yil 25-fevraldagi Q-139-son qarori

4. Sariosiyo tuman hokimining ““Uzun” davlat va “Hisor” ixtisoslashtirilgan davlat o‘rmon xo‘jaliklarining davlat o‘rmon fondi yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 14-iyuldagi 77-8-116-Q/21-sonli qarori.

5. Sariosiyo tuman hokimining “Tumandagi o‘rmon fondi maydonlarini yong‘indan saqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 2-dekabrdagi 250-8-116-Q/21-sonli qarori.

6. Sariosiyo tuman hokimining “Tumandagi o‘rmon fondi maydonlarini yong‘indan saqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 2-dekabrdagi 251-8-116-Q/21-sonli qarori.